



SHAHODAT ISAXONOVANING “SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI” ROMANIDA XARAKTER TASVIRI.

*Farg'ona davlat universiteti adabiyot shunoslik o'zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti Ma'rufjonova Muxlisa To'lanboy qizi*
Muhlisamarufjonova0@gmail.com Tel: 998505700721

Annotatsiya: Badiiy asarda xarakter yaratish doim dolzarb masala hisoblanadi. Boisi, qahramon ruhiyatini to'laqonli ochib berish, asar yaratishdagi o'z individual uslubini namoyon qila olish yozuvchining mahoratini ko'rsatib beradi. Shuningdek, harakter tasviri kitobxonni asarning ruhiy olamiga olib kiradi va asardan hayotiy xulosa olish vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada O'zbek nasrining atoqli vakillaridan Shahodat isaxonovaning Sulton Jaloliddin Manguberdi romanida badiiy xarakter yaratish mahorati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: xarakter tasviri, tarixiy roman, badiiy obraz, psixologizm, badiiy tipaj, voqeyilik va badiiylilik.

Kirish

Insoning ruhiy dunyosini, uning his-tuyg'u, fikr-mulohaza, xarakterini yuksak mahoratli ijodkorgina badiiy so'z bilan tasvirlay oladi. Ayniqsa xarakter tasviri murakkab jarayon. Chunki kitobxonga har bir asar qahramoni haqida badiiy taassurotni yetkazishda obrazning xarakter xususiyati, ichki kechinmalarini individual fe'l-atvorini yetarlicha ochib berish lozim. Badiiy xarakter ma'lum davr yoki muhit kishilariga xos bo'lgan eng muhim umumiy xususiyatlarni va alohida shaxsning individual xususiyatlarini o'zida mujassam etgan inson obrazidir.

Hozirda tarixiy roman janrida samarali qalam tebrata yotgan yozuvchilar orasida Sh. Isaxonova istedodini alohida takidlash lozim. Adibanin asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligini qahramon ruhiyatini chuqur ochib berishda badiiy psixologizmning yangicha tasvirlaridan keng foydalanilganini, peyzaj portret psixologik detallar va muallif nutqi orqali qahramonlar harakteri ishonarli



tasvirlanganini ko'plab yangi obrazlar yartilganini ko'ramiz. Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan muallifning "Sulton Jaloliddin Manguberdi" romanida turfa xil insonlar taqdiri qahramonlarning o'ziga hos xarakteri psixologiyasi o'y-kechinmlariga guvoh bo'lamiz. Mamlakatlarning tanazzulga yuz tutish sabablari, o'sha davrdagi ijtimoiy iqtisodiy hayot, siyosiy vaziyatning keskinlashuvi yozuvchi tomonidan mahurat bilan tasvirlanadi. Tarixiy shaxslarning dard-u tashvishlari, hissiyotlari mamlakat taqdirining fojiiyali yakuni o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Asosiy qism

Shahodat Isaxonovanning "Sulton Jaloliddin Manguberdi" romani o'zbek tarixiy adabiyotining muhim asarlaridan biri bo'lib, XIII asrda yashab o'tgan buyuk Xorazimshohlar sulolasidan Sulton Alouddin Muhammad Xorazimshoh hamda Sulton Jaloliddin Manguberdilar davridagi davlat boshqaruvi tasvirlangan. Mamlakatdagi o'zaro ichki nizolar tax tuchun kurash siyosiy inqiroz qahramonlar o'rtasidagi ruhiy konfliktlar asardagi badiiy xarakterlarni yanada chuqurroq ochib berishga hizmat qilgan.

Yozuvchi asar qahramonlarining xarakterini tasvirlashda muallif xarakteristikasi usuli yetakchilik qiladi. Shu jumladan, romandagi yetakchi obrazlardan biri Xorazimshoh xarakteri tasvirida ham roviy nutqi orqali tasvirlash ko'zga tashlanadi.

¹*Muhammad Xorazmshoh tabiatan Sulton Takashga o'xshab mard, jasur, dovyurak ko'rinsa-da, fe'l jihatdan qiblagohiga umuman tortmagan edi. Sulton Takash aqilli, tadbirli hukmdor, dovyurak sarkarda bo'lish bilan birga ma'rifatparvar, quvvai hofizasi nihoyatda yuksak, ayni zamonda, ilmi bayondan, ilmi aruzdan ham xabardor, oydin inson edi. Sulton Muhammadda esa bu fazilatlar deyarli yo'q edi. Uning suvrati yuvvosh, muloyim ko'rinsa-da, siyrati o'ziga yetguncha qaysar edi. U o'zi bilganidan qolmaydigan, orqa-oldini o'ylamay, tutganini kesadigan o'jar edi.*

¹ Shahodat Isaxonova Sulton Jaloliddin Manguberdi. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2018 yil 18-b



Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov aytganidek, ²muallif karakteristikasida obrazning fe'l- atvoriga xos asosiy xususiyatlar umumiy tarzda bayon qilinadi. Odatda, muallif karakteristikasi asarning boshlanishida yoxud konkret obraz asar voqeligiga kirib kelgan o'rinlarda beriladi. Muallif karakteristikasi o'quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti- harakatlari, gap -so'zlarini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhammad Xorazimshohning ham asar davomidagi xatti-harakatlari roviy tomonidan ta'riflangan fe'l-atvoriga ham to'ri keladi. O'g'li Sulton Jaloliddining e'tirozlariga qaramay, garovdagi tutqunlarni Uulqarnayin navbasini chalishga majbur qilgani shoxning o'taketkan qaysar va kibrililigining yaqqol tasviridir.

³Sulton Jaloliddin:

— *Noqora chalayotganlar garovdagi tutqunlarimizmu, olampanoh!*

Xorazimshoh:

— *Albatta, alar! Ul ko'rnamaklarni noqoramizga o'ynayotrmen! Boplabmanmu? Xorazmshoh birlan tir kelmoqqa uringan kaslarning ahvoli oxir-oqibat shunday yakun topmog'ini boshqalar ham bilib qo'yishsun!*

Sulton Jaloliddin:

— *Olampanoh, axir alar shahzodalar-ku?!*

Xorazimshoh:

— *Menga desa podshox bölishmaydimu? Alar mening tutqunlarim, istagan köyimga solamen.*

Aynan shu narsa, Xorazimshohning o'zidan boshqalarni nazariga ilmasligi o'zini hudoning yerdagi soyasi deb bilib o'ziga ortiqcha baho berishi mamlakatni parokandalikka yuz tutishiga sabab bo'ladi.

Muallif Sultonning ma'lum bir vaziyatdagi tashqi qiyofasini, ya'ni portretini o'quvchining ko'z o'ngida gavdalantirish orqali ham qahramonning ruhiy holatini uning harakteridagi g'azabkorlikni mahorat bilan aks ettirgan.

² Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari . Toshkent 2018-yil 99-b

³ Shahodat Isaxonova Sulton Jaloliddin Manguberdi. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2018 yil 20-21bet.



⁴Sultonning lablari gezarib, yuzlari alamli bujmaydi, malikaning ovozi quloqlari ostida huddi dovulning sasiday qaldiradi. Uning nafas olishi tezlashib, o'ljasi tashlanmoqchi sherday ilkis xezlandi. O'ng qo'li belidagi oltin sopli xanjari tomon yugurdi.

Har bir detal — lablarning qizarishi, yuz ifodasi, qo'l harakati, xanjarning yo'nalishi — uning g'azab va o'z hissiyotlarini boshqara olmasligini yaqqol ko'rsatadi. Shu tarzda muallif o'quvchiga Sulton Xorazimshohning qiyofasini tasvirlash bilan birga, uning ruhiy holatini tasvirlab beradi.

Bundan tashqari muallif Sulton Xorazimshohning farzandlik pozitsiyasidagi salbiy holatlarni ham ko'rsatib bergan. Buni Sulton Xorazimshoh va Malika Turkon xotun o'rtasidagi turli xil kinoya, kesatiqli suhbatlarham dalillaydi.

⁵Xorazimshoh:

— Bilamen, taxt sizga kerak ermas, lek, taxt alar uchun zarur! Siz ersa, alar uchun xo'rozchasiz! Kutilmagan o'xshatishidan shoshib qolgan, buning ustiga ulug' elchidan xijolat tortgan Turkon xotun g'azablanish o'rniga kulib yubordi.

Turkon xotun:

— Xo'rozcha? Qanday go'zal muqoyasa, demak, har qalay nafim tegayotgan erkanda! - dedi lablarini kinoyali burib,

Turkon xotun:

— lek, eng yomon, xo'rozchaning cho'pi bo'lish, chunki, xo'rozchani shimib tugatishgach, dumiga tiqilgan cho'pini tashlab yuborishadur!

Xorazimshoh:

— Bul ne deganingiz? Siz meni xo'rozchaning cho'piga mengzayotirmisiz? G'azablangan Sultonning ko'zlari kosasidan chiqquday bo'lib olaydi.

Sultonning Turkon xotun bilan bo'lgan suhbatlari uning shaxsiy va oilaviy munosabatlardagi salbiy jihatlarini ham ochib beradi. Kinoyali va keskin so'zlashuvlar, o'zaro qattiq hazil va taqqoslashlar orqali muallif Sultonning kibrililigini, shuningdek, uning hukmdorlik qobiliyatidagi kamchiliklarini namoyon

⁴ Shahodat Isaxonova Sulton Jaloliddin Manguberdi. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2018 yil 56-b

⁵ Shahodat Isaxonova Sulton Jaloliddin Manguberdi. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2018 yil 55-b



qiladi. Turkon xotunning kinoyali soʻzlari Sultonning oʻz pozitsiyasidagi zaif tomonlarini ham yuzaga chiqaradi va oʻquvchida qahramonning ichki qarama-qarshiliklarini sezish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, muallif portret va tashqi qiyofa orqali ruhiy holatni tasvirlash usuliga alohida eʼtibor beradi. Asar qahramonlarining xarakteri va keskin his-tuygʻularini aks ettiradi.

Muhammad Xorazimshohning farzandlik pozitsiyasidagi salbiy holatlari, yaʼni Sulton Jaloliddin bilan munosabatlari ham muallif tomonidan nozik tahlil qilinadi. Bu qahramonlar oʻrtasidagi ichki ziddiyat, otaning oʻgʻlidan ustun boʻlishga intilishi va hokimiyatdagi oʻzini yuqori tutishi orqali ochiladi. Shu bilan birga, bu holatlar asarda davlat boshqaruvidagi zaiflik va ichki nizolarni koʻrsatib, tarixiy kontekstni boyitadi. Umuman olganda, Shahodat Isaxonovanning romani Sulton Xorazimshohning xarakteri va qahramonlarning ruhiy holatini batafsil tasvirlash, shuningdek, tarixiy voqealar va siyosiy ziddiyatlarni badiiy uslubda yetkazish orqali oʻzbek tarixiy adabiyotida muhim oʻrin egallaydi.

Xulosa

Shahodat Isaxonovanning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” romani oʻzbek tarixiy adabiyotining muhim asarlaridan biri boʻlib, XIII asrda yashab oʻtgan Xorazmshohlar sulolasining davlat boshqaruvi, siyosiy nizolari va ichki ziddiyatlarini badiiy tafsilotlar orqali ochib beradi. Romanda Sulton Muhammad Xorazimshoh va Sulton Jaloliddin Manguberding xarakterlari, ularning feʼl-atvori, ruhiy holatlari va qaror qabul qilishdagi xususiyatlari muallif tomonidan turli usullar — roviy nutqi, portret, tashqi qiyofa va dialoglar orqali yoritilgan.

Muhammad Xorazimshohning kibrligi va oʻzini hukmdor sifatida yuqori baholashi, shuningdek, farzandlik munosabatlaridagi ziddiyatlar asardagi dramatik holatlarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, muallif portret va tashqi qiyofa orqali qahramonning ichki gʻazabi va hissiyotlarini aks ettirib, oʻquvchida uning ruhiy holati haqida toʻliq tasavvur hosil boʻlishini taʼminlaydi. Shu tarzda, romanda tarixiy voqealar va shaxsiy xarakterlar bir-biriga uygʻunlashib, oʻquvchiga nafaqat tarixiy



haqiqat, balki insoniy munosabatlar, ichki ziddiyatlar va hukmdorlik mas'uliyatini badiiy tasvir orqali yetkazadi. Asar o'zining boy badiiy tasvir va chuqur xarakter tahlili bilan o'zbek tarixiy adabiyotida alohida o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari . Toshkent 2018-yil
2. Shahodat Isaxonova Sulton Jaloliddin Manguberdi. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2018-yil
3. M. Abdurahmonova, "Ruhiy dunyo tasviri" - "O'zbekiston" nashriyoti, Toshkent - 1977.
4. I. Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "O'qituvchi" – 1986-y.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T., "Sharq" - 2002.

Internet saytlar

1. Unlibrary.uz
2. Ziyo.Net